Aviachiptaning haqiqiyligini qanday tekshirish mumkin

2022 11 Aprel

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishi munosabati bilan odamlar hayotini yaxshilash uchun ko‘plab yangi imkoniyatlar paydo bo‘lmoqda. Biroq, jamiyatda ushbu imkoniyatlardan asossiz maqsadlarda foydalanadigan ayrim fuqarolar ham bor.

So‘nggi kunlarda soxta aviachiptalar sotish holatlari ko‘payotganligi sababli aviakompaniya yo‘lovchilarga Uzbekistan Airways haqiqiy aviachiptasida quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatilishi kerakligini eslatib o‘tadi:

• 13 ta raqamdan iborat va 250 sonidan boshlanadigan noyob aviachipta raqami;

• aviachipta xarid qilgan agentlikning to‘liq manzili;

• aviachiptaning narxi, agentlik yig‘imi miqdori va xarid qilingan avaichiptaning tarifi;

• bagaj uchun ruxsat etilgan joy miqdori;

• Uzbekistan Airways aviaqatnoviga chiqish va ro‘yxatdan o‘tish vaqti tugashi haqida eslatma.

Xarid qilingan aviachiptani (https://auxiliary.uzairways.com/uz/) havolasi yoki Aloqa markazi raqami: 78 140 02 00 (kecha-yu kunduz faoliyat yuritadi) orqali tekshirib olishingiz mumkin.

Xurmatli yo‘lovchilar! Uzbekistan Airways ushbu ma’lumotlarni doimo tekshirib ko‘rishingizni va aviachiptalarni xarid qilishda hushyor bo‘lishingizni so‘rab qoladi.